

## TA'LIMDA ELEKTRON DARSLIKLARNING O'RNI VA AHAMIYATI

**Yuldashev Izzatilla Mahkamovich**

*Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti*

*"Tillar" kafedrasи katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada elektron darsliklarning afzalliklari, yaratilish bosqichlari, texnik va pedagogik talablari haqida batafsil ma'lumot berilgan. Elektron o'quv-metodik majmua tuzilishi, unda ishlataladigan dasturiy vositalar va uning o'quv jarayonidagi o'rni tahlil qilingan. Ayniqsa, ona tili ta'limi uchun ishlab chiqilgan elektron resurslar misolida amaliy tajriba yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** elektron darslik, o'quv-metodik majmua, interaktivlik, multimedya, test, dizayn, pedagogik texnologiya.

**Аннотация:** В статье подробно рассматриваются преимущества электронных учебников, этапы их разработки, а также технические и педагогические требования к ним. Анализируется структура электронного учебно-методического комплекса и его роль в образовательном процессе. Особое внимание уделено электронным ресурсам по предмету «родной язык».

**Ключевые слова:** электронный учебник, учебно-методический комплекс, интерактивность, мультимедиа, тестирование, дизайн, педагогические технологии.

**Annotation:** The article provides a detailed overview of the advantages of electronic textbooks, their development stages, and the technical and pedagogical requirements they must meet. It analyzes the structure and functionality of electronic educational-methodological complexes, with special emphasis on electronic resources developed for native language instruction.

**Keywords:** electronic textbook, educational complex, interactivity, multimedia, testing, design, pedagogical technology.

Zamonaviy ta'lim tizimi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydigan bosqichga yetib keldi. Ilm-fan taraqqiyoti, raqamli texnologiyalar rivoji, internet tarmog'ining keng qamrovi ta'limning barcha bog'inlariga tubdan o'zgarishlar olib kirmoqda. Ayniqsa, o'quv jarayonida elektron darsliklardan foydalanish ta'lim samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron darsliklar — bu an'anaviy bosma darsliklarning zamonaviy, raqamli shakli bo'lib, unda matn, grafikalar, audio, video, interaktiv mashqlar, testlar va gipermatnli havolalar mujassam bo'ladi. Ular o'quvchilarning mavzuni mustaqil o'zlashtirishi, bilim darajasini baholashi va o'quv

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Ta'lim jarayoniga elektron darsliklarni joriy etish orqali nafaqat o'qituvchilar, balki o'quvchilar uchun ham qulayliklar yaratiladi. O'quv materialining estetik, ko'rgazmali va interaktiv taqdim etilishi o'quvchilarda darsga qiziqishni orttiradi, bilimni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bois bugungi kunda elektron darsliklar ta'lim sifatini oshirish, resurslarni tejash, o'quvchilarning individual o'zlashtirish darajasini hisobga olish va uzlusiz o'quv jarayonini tashkil etishda zarur vosita sifatida qaralmoqda.

Shuningdek, elektron darsliklar iqtisodiy jihatdan tejamkor bo'lib, ko'plab resurslarni tejashga xizmat qiladi. Bunday darsliklarni yaratish uchun tajribali o'qituvchi, dasturchi, grafika rassomi va muharrirdan iborat jamoaning hamkorligi talab etiladi. Darslik mazmuni pedagogik texnologiyalar, kompyuter imkoniyatlari va o'quv ehtiyojlariga mos holda rejalashtiriladi, ssenariy asosida ishlab chiqiladi. Elektron darsliklardan foydalanishning asosiy afzalliklari sifatida quydagilarni keltirish mumkin:

Internet orqali bir vaqtning o'zida ko'plab o'quvchilar foydalanishi mumkin. Animatsiyali va interaktiv materiallar orqali mavzular qiziqarli va tushunarli bo'ladi. Mustaqil ta'lim olish, bilimni baholash imkoniyati mavjud. Tezkor yangilanish va turli multimedia vositalari bilan boyitilgan.

Bugungi kunda rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ham elektron darsliklarga bo'lgan munosabat ijobjiy bo'lib, zamонавиу та'lim tizimlarida ular keng qo'llanilmoqda. Quyida ayrim asosiy yondashuv va munosabatlar keltirilgan: Masalan, AQSh va Yevropa davlatlarida Ta'lim raqamlashtirilgan; maktab va universitetlarda elektron darsliklar asosiy o'quv vositasiga aylangan. Ochiq ta'lim resurslari (OER): bepul, ochiq platformalarda (Coursera, edX, Khan Academy) minglab elektron darsliklar mavjud. Shuningdek, har bir o'quvchining darajasiga mos materiallar avtomatik taklif etiladi. Janubiy Koreya va Yaponiya esa har bir o'quvchida planshet bo'lib, bosma darsliklar o'rnni elektronlari egallagan. Darsliklar video, test, animatsiya bilan boyitilgan; o'quvchi faol ishtirokchiga aylanadi. Raqamli ta'lim MDH davlatlarida (Rossiya, Qozog'iston, Belarus)da ham o'z o'rnni mustahkamloqda. Ularda asosan aralash ta'lim tizimi: elektron va bosma darsliklar birga qo'llaniladi. Davlat maktablari ham elektron darsliklardan foydalanish bo'yicha standartlar ishlab chiqqan.

Demak, Jahan tajribasiga tayanadigan bo'lsak, elektron darsliklar: ta'limni interaktiv qiladi, individual yondashuvni ta'minlaydi, o'quvchi va o'qituvchi orasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Shunday bo'lsa-da, elektron darsliklarning ko'plab afzalliklari bilan bir qatorda, ayrim kamchiliklari ham mavjud. Ularni quyidagicha ko'rsatish mumkin:

1. Texnik qiyinchiliklar - Elektron darsliklardan foydalanish uchun zarur bo'lgan qurilmalar (kompyuter, planshet, internet) hamma o'quvchilarda mavjud emas. Elektron quvvati yoki internet uzilishlari o'quv jarayoniga to'sqinlik qilishi mumkin.

2. Ko'z va sog'liq bilan bog'liq muammolar - Uzoq vaqt ekran qarshisida o'tirish ko'zning charchashi, bosh og'rig'i, umurtqa muammolari kabi sog'liq muammolarini

## MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS



keltirib chiqaradi. Notog‘ri yoritilgan muhitda foydalanish gigienik talablarni buzishi mumkin.

3. Texnik savodsizlik - Ayrim o‘qituvchilar yoki o‘quvchilar kompyuter va dasturlar bilan ishslashda yetarlicha malakaga ega emas.

4. Diqqatni chalg‘ituvchi omillar - Internet orqali ishslash davomida e’tiborni chalg‘itadigan reklama, ijtimoiy tarmoq va boshqa resurslarga kirib ketish xavfi mavjud.

5. O‘zaro muloqotning yetishmasligi - An’anaviy darsliklardagi o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi jonli muloqot elektron darsliklarda cheklangan bo‘ladi.

6. Kontent sifati - Ba’zi elektron darsliklarda grammatik, uslubiy va texnik xatolar ko‘p uchraydi. Har doim ham pedagogik va psixologik talablarga to‘liq javob bermaydi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, bugungi kunda yaratilayotgan aksariyat elektron adabiyotlarda imlo, punktuatsion va uslubiy xatolaming ko‘p uchrayotganligi har qanday ziyoli kishini tashvishlantiradi. Mulohaza o‘mida aytish o‘rinlikni, biz umumjahon elektron tizimiga, butun dunyo virtual universitetlariga kirib borish va birgalikda faoliyat ko‘rsatishni ko‘zlayotgan ekanmiz, O‘zbekistonda yaratilgan elektron adabiyotlar butun dunyo ahliga tanishtirilishi, yoyilishini hisobga olishimiz, o‘zimizning savodxonligimizni ham namoyon qilishimizni e’tiborda tutishimiz lozim. Ulkan mehnatlar evaziga yaratilgan adabiyot matni tilida nuqsonlar bo‘lsa, bu adabiyotning bahosini pasaytirishi shubhasiz. Elektron adabiyotga bezak berilishidan oldin va bezak berilishi jarayonida tilshunos mutaxassislar tomonidan tahrir qilinishiga alohida e’tibor berish zarur.

Xulosa qiladigan bo’lsak, zamonaviy ta’lim jarayonida elektron darsliklar ta’lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Elektron darsliklar yordamida o‘quvchilar bilimni mustaqil o‘zlashtirish, materialni vizual, interaktiv shaklda qabul qilish, bilim darajasini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Ular an’anaviy darsliklarga nisbatan ko‘proq imkoniyatlarga ega bo‘lib, turli formatdagi ma’lumotlar — matn, audio, video, animatsiyalar orqali o‘quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, elektron darsliklarni yaratishda metodik, pedagogik, psixologik va texnik talablarni hisobga olish zarur. Bu kabi darsliklar yuqori sifatli kontent, qulay interfeys, gigienik me’yorlarga mos dizayn, testlar va interaktiv mashqlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak. Ayniqsa, ona tili kabi fanlarda multimediya vositalari orqali ifoda etilgan topshiriq va materiallar o‘quvchilarning tilni o‘zlashtirishiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Shunday qilib, elektron darsliklar ta’lim tizimining raqamlashtirilgan kelajagini shakllantirishda muhim omil bo‘lib, ularni yaratish va tatbiq etishga ilmiy, puxta va izchil yondashuv zarurdir.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Usmonova Z. Adabiyot o‘qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari // Til va adabiyot ta’limi. – 2005. – №3. – B. 20–22.



**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC  
SOLUTIONS**

2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi tizimi uchun o‘quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiysi. – 2013-yil 2-avgust, 278-sonli buyruqqa ilova. – B. 84–85.

3. Yuldasheva Sh.Sh., Zaripov O., Bekjanova M., Smaylova D., Gulmanova Q., Yangiboyeva G., Urazboeva D. “Ona tili” elektron o‘quv-metodik majmua (5-sinf, 1-qism). – Toshkent: [nashriyot ko‘rsatilmagan], [yil ko‘rsatilmagan]. – B. 85–88.

